

XADICHA SULAYMONOVA - UNITILMAS SIYMO*Amirova Laziza**Toshkent davlat yuridik universiteti**2-bosqich talabasi***Annotatsiya**

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Xadicha Sulaymonova buyuk taniqli shaxslardan bo'lgan. Xadicha Sulaymonova O'zbekiston Respublikasida sudyalik va ko'plab ilmiy faoliyatlar bilan shug'ullangan yetuk shaxs hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Xadicha Sulaymonova hayoti va faoliyati yoritiladi

Kalit so'zlar: ilmiy ishlar, konferensiya, mukofotlar, buyuk shaxs, advokat, sudya, huquq, gender tenligi, hujum, akademik.

XX asr boshlaridagi suronli yillarda Andijon tomonlarga borib qolgan Sulaymon Kelgenboyev ismli qozoq yigiti mahalliy aholi ichidagi Otincha ismli qizga uylanadi. U tirikchilik g'amida Turkiston o'lkasini yillar davomida oralab, o'zbek, qirg'iz, tojik, turkman va rus tillarini mukammal o'zlashtiradi. Shu sababli, Andijon boylaridan bittasi uni o'z karvonsaroyga ishga oladi. Ajib kunlarning biri edi, 1913 yil 3 iyunda bir nur, gul yuzli, kelajagi porloq bo'lgan bir qiz dunyoga keldi, bu aynan Sulaymonning qizi - Xadicha edi. Xadichaning otasi Sulaymon erta vafot etadi, biroq onasi Otincha ona qat'iyatli ayol edi. Erining vafotidan so'ng qancha zahmat cheksa ham farzandlarini o'zгалardan kam qilmaslikka harakat qildi. Xadicha Sulaymonovaning xolavachchasi Qurbongul Saidova xotiralarida «Otincha xolam beshta bolasi – Yusufjon, Mo'tabar, Xadicha, Niyozbek, Gulbahromlar bilan birga Andijonda yashar edi. Shunday qiyinchiliklarga ham bardoshli ayol bo'lganini ushbu tarixiy ma'lumotlardan ham bilsak bo'ladi. Xadicha onasidan dadasining qanday inson bo'lganligi haqidagi hikoyalarni eshitib, dadasi kabi ko'p til bilishni niyat qiladi. U davrlarda o'zbek zaminida vaziyat murakkab edi. 1926 yili ayollarning paranjisini yechib tashlatish uchun «Hujum» kompaniyasi boshlanadi. Bir tomondan unga qarshilar ham paydo bo'ladi. 1928 yili parangi tashlagan, savodsizlikni tugatish yoki badiiy havaskorlar to'garagiga qatnashgan 203 nafar ayol o'ldirilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Shunga qaramasdan, ayol huquqi masalasi kun tartibidan tushmadi, aksincha, kuchayib ketdi. Buning hammasini o'qib-bilib yurgan Xadicha bilim olib, huquqshunos bo'libgina, ayollarning haq-huquqini himoya qila olishini anglagandi. Xadicha 9 yillik rus maktabini tugatib, Toshkentdagi Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot institutining tayyorlov kursiga o'qishga kiradi. Bir yil o'qigandan keyin endigina ochilgan Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq instituti

huquq fakulteti 2-kursiga qabul qilinadi. Bu institutga Moskva va Leningraddan I. I. Krilsov, I. N. Trepitsin kabi professorlar taklif etiladi. Xadicha Sulaymonova 1935 yilda institutni tugatadi. Bitiruv kechasida O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi Y. Oxunboboyev ishtirok etib, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash masalasini ijobiy hal qilgan. Xadicha xalq sudyasi sifatida ish boshlaydi. Bu uning ilk orzularidan biri bo'lgan yuristik maqomiga bir pog'ona ko'tralish edi. 1935 yilning oxirida Respublika Oliy sudi a'ziligiga saylanadi. Bunga qadar hech kim 22 yoshida bunday yutuqqa erishmagan. Hadicha Sulaymonova o'zining qat'iyati va mehnatsevarligi bilan o'z faoliyatida katta muvaffaqiyatlarga erishib, huquq sohasidagi malakasi bilan e'tirofga sazovor bo'ldi. U Oliy sudga 3 yilga yaqin ishlaydi. 1938 yili Moskva yuridik instituti aspiranturasiga o'qishga kiradi. Professor A. N. Traynin yetakchiligida ilmiy ishiga materiallar to'play boshlaydi. Ammo urush boshlanib ketgandan keyin uning dissertatsiyasi himoya qilinmadi. U Toshkentga qaytib kelib, Huquq institutida 2 yil assistent, keyin jinoiy huquq kafedrasida dotsent bo'lib ishlaydi. 1945 yil 20 iyunda SSSR Adliya komissarligi huzuridagi butun ittifoq yuridik institutida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Akademik Sulaymonova o'z tadqiqotlarida O'zbekiston jinoyat huquqini rivojlantirish, davlat qurilishi va xalq xo'jaligini boshqarishda kengashlarning rolini oshirishga katta e'tibor beradi. Yuridik fanlar sohasida sharq ayollari orasidan chiqqan birinchi fan doktori bo'lgan Xadicha Tashkent Huquq institutiga direktor bo'lib tayinlanadi. Unga uning shu davrgacha bo'lgan mehnat faoliyati, matonat sohibi hamda akademik bo'lganligi tufayli, «O'zbek SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi» unvoni beriladi. U 1956 yilning sentyabrida O'zSSR Adliya ministri bo'ladi. Xuddi shu lavozimda ishlayotganida 1961 yili 30 mayda kychga kirgan «O'zSSR advokatura to'g'risidagi qonunini» tayyorlagan. Xadicha Sulaymonova advokatlik sohasidagi gender to'siqlarini buzib, birinchi o'zbek ayol advokati sifatida tarixga kirdi. Uning yutuqlari ayollarning yangi avlodini o'z orzulari sari ilhomlantirdi. U boshqa ayollarga uning izidan borishiga yo'l ochib berdi. Hadicha Sulaymonova sud zalida adolat uchun kurashishdan tortib, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda va undan tashqarida huquqshunos bo'lmoqchi bo'lgan ayollar uchun namuna bo'ldi. Uning yuridik sohaga ta'siri shubhasizdir. 1957 yil 1 maydagi ma'lumotlarga e'tibor bersak, ministrlidagi 41 xodimning 15 nafari, viloyat sudi 87 sudyasining 25 nafari, 230 xalq sudyasining 48 nafari, 70 notariusning 53 nafari ayol-qizlar bo'lgan. Bunga qaraganda, X.Sulaymonova ayol-qizlar masalasiga alohida e'tibor qaratganligiga aslo shubha yo'q. Uning tashabbusi bilan 1958 yil 24 yanvarda uning rahbarligida Toshkent sud ekspertiza ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi. Bu institutga keyinroq Xadicha Sulaymonova nomi beriladi. Institut hozirgi paytda markazga aylangan. Shu yilning martida O'zbekiston Adliya va sud organlari qayta tashkil etildi. Adliya ministrligining sudlar va notariuslarni boshqarish funksiyasi Oliy sudga berildi. O'zSSR Ministrlar

Soveti huzuridagi kodifikatsiya ishlarini tashkil etuvchi, ministrlkning boshqa vazifalarini bajaruvchi organ – Yuridik komissiya tashkil etildi. X. Sulaymonova mana shu komissiyaga rahbarlik qildi. Advokatura, sud ekspertizasi instituti ushbu komissiya tarkibiga kirdi. Institut 1959-1963 yillarda akademik X. Sulaymonova tahriri ostida 4 ta ilmiy to‘plam nashr qildi. Akademik Sulaymonova o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston jinoyat huquqini rivojlantirish, davlat qurilishi va xalq xo‘jaligini boshqarishda kengashlarning rolini oshirishga katta e‘tibor beradi. Xadicha Sulaymonova birinchi o‘zbek ayol advokati sifatida to‘siqlarni buzib, ayollarga advokatlik kasbiga yo‘l ochib berdi. Uning sanoatga ta‘siri shubhasizdir. Xadicha Sulaymonova o‘zining ulkan yutuqlari bilan son-sanoqsiz intiluvchan ayol yuristlarni o‘z orzularini amalga oshirishga va huquq sohasida o‘zgarishlar qilishga ilhomlantirdi. Uning merosi advokatlik kasbining xilma-xilligi va inklyuzivligi muhimligini eslatib, kelajak avlodlar uchun kuchli namuna bo‘lib xizmat qiladi. Xadicha Sulaymonova 1964 yil aprelda O‘zSSR Oliy sudi raisi bo‘lib saylandi. Bunga qadar dunyoning hech qaysi davlatida bunday lavozimga ayol kishi saylanmagan. Qiziqarli jihati shuki, bu baxt demokratiya vatani hisoblanadigan AQSH yoki Yevropa davlatlari ayollari emas, o‘zbek qiziga nasib etishi katta tarixiy yutuq bo‘lib qolaveradi. Gender tarafkashligi va madaniy stereotiplar kabi ko‘plab muammolarga duch kelgan Xadicha o‘zini muvaffaqiyatli advokat sifatida ko‘rsatishga qat‘iy ishondi. Uning sayohati intiluvchan ayol yuristlar uchun ilhom manbai bo‘lib, o‘z maqsadlariga erishish yo‘lidagi to‘siqlarni engib o‘tish uchun zarur bo‘lgan chidamlilik va qat‘iyatni namoyish etadi. Xadicha Sulaymonova advokatlik sohasidagi gender to‘siqlarini yo‘qqa chiqargan birinchi o‘zbek ayol advokati sifatida tarixga kirdi. Xadicha Sulaymonovanning mardonavor yo‘li to‘siqlarni buzib o‘tib, huquqiy sohada gender tengligi va imkoniyatlarini kengaytirishga zamin yaratdi. Uning qat‘iyati va adolatga bo‘lgan ishtiyoqi haqiqatan ham tahsinga sazovor. Xadicha Sulaymonovanning merosi o‘zining ulkan yutuqlari orqali butun dunyo ayollari uchun umid va kuch-quvvat nuri bo‘lib xizmat qiladi, orzular sari intilish muhimligini ta‘kidlaydi. Xadicha Sulaymonovanning 1956 yili sotsiologlarning uchinchi xalqaro Amsterdam kongressida ishtirok etishi uning nomini jahonga tanitdi. 1961 yili Birlashgan Arab Respublikasida o‘tkazilgan Osiyo va Afrika ayollarining birinchi konferensiyasida nutq so‘zlashi e‘tiborga molik hodisa bo‘ldi. X.Sulaymonovanning Prezident Gamal Abdul Nosir bilan uchrashuvini dunyo matuoti keng yoritdi. Shuningdek, u London, Sofiya, Tokio, Dehli, Praga, Kolomba va boshqa shaharlarda o‘tkazilgan konferensiyalarda ishtirok etib, doklad qildi. Xadicha Sulaymonova mash‘um sanada 1965 yil 26 noyabrda og‘ir kassalikdan vafot etdi. Xadicha Sulaymonova kamtar, oqila, mehribon ona, matonat va sabot malikasi edi. U hatto, o‘lim vaqti yaqinlashganda ham, “Menga yana bir yil kerak edi, o‘z ilmiy fikrlarimni yozib qoldirish uchun” degan so‘zlari hech bir o‘zbek huquqshunos ayolning, nafaqat ayolning, balki barcha huquqshunoslarning yodidan chiqmaydi.

Sababi shudnay oxirgi lahzalarda ham xalq dardida yashagan bu o`zbek qizi, o`zbek sudyasi, adliya vaziri unilmas bir siymodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://sudexpert.uz> Бекобод Узоқов.мақола."Дунёда биринчи марта Олий судни бошқарган ўзбекистонлик аёл ҳақида биласизми"
2. Khakimov M.Kh., Akhmedov F., Saidov. A.Kh. Hadicha Sulaymonova khukukshunos olima davlat arbobi. Tashkent., Uzbekistan.
3. M. Kh. Hakimov. Academician Khadija. - Justice. - Tashkent, 1972.